

MISR DIPLOMATIYASIDA AL-AMARNA ARXIVINING O`RNI.

Saidmurodov Javohir

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

E-mail: saidmurodov447@gmail.com

Shermatov Sherbek

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

E-mail: sherbekshermatov31@gmail.com

Esanov Hayitali

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

E-mail: hayitaliesanov897@gmail.com

Annotatsiya: Quyida berilgan maqolada Misr diplomatiyasi tarixi o`zining beqiyos o`rniga ega bo`lgan Al Amarna arxivi haqida so`z yuritiladi. Misrning qadimgi diplomatiyasiga oid hujjatlar orasida Al Amarna arxivining o`rni, ushbu arxivning tarixi va o`rganilishi haqida ma'lumotlar keltirilib o`tilgan.

Kalit so`zlar: Fir'avn maktublar uyi". "Aton garizonti", maxsus elchilar va choparlar, "Qadimgi dunyo tarixi".

Qadimgi Misr siyosiy hayotida diplomatiya muhim rol o`ynaganligi giksoslar va Yangi podsholik davriga oid yozma manbalarda o`z tasdig`ini topgan. Qadimgi Sharq diplomatiyasiga oid ko`pgina yodgorliklar ichida o`zining hajmi va mazmuni jihatidan Al-amarn yozishmasi alohida ahamiyatga ega. 1887-1888 yillarda Amarna degan joyda (Nilning O`rta Egipetdagi o`ng qirg`og`ida) XVIII sulola fir'avnlari – Fir'avn maktublar uyi" (II minginchi yillik o`rtalari, miloddan oldingi XV-XIV asrlar) ning diplomatik yozishmalari saqlangan arxiv topilgan. Fir'avnlarga tegishli ushbu xatlar 360ta sopol taxtachalarga yozilgan. Misrda, Nilning sharqiy sohili bo`ylab Qohiradan janubga 312 km masofada deyarli kimsasiz bo`lgan yevropaliklar tomonidan El-Amarn toki Tel-

Amarn deb ataluvchi joyda 1887-yilda mahalliy dehqon tomonidan topilgan. Bu joyda bir vaqtlar Yangi podsholikning fir'avnlardan biri bo'lgan Amenxotep IV (Exnaton) ning poytaxti bo'lmish Axetaton ("Aton garizonti") qad ko'targan bo'lib, hozirgi davrga qadar uning xarobalari saqlanib qolgan. Shu harobalarda o'z chorvasini o'tlatish uchun yaylov sifatida foydalangan mahalliy dehqon bu yerdan 300 ga yaqin mixxatli loy taxtachalarni topib oladi. Bu xabar texda xazina izlovchilargacha yetib bordi. Natijada mixxatli loy taxtachalar ko'plab antikvar buyumlarni yig'uvchilarga sotib yuborildi. Bugungi kunda dunyoning eng mashhur muzeylarida ushbu arxivga oid bo'lgan jami 400 dan ortiq mixxatli loy taxtachalarga tushirilgan xatlar saqlanib kelmoqda. Ushbu xatlar Amenxotep III va Amenxotep IV saroyiga Bobil, Mitanni, Ossuriya, Xetlar podsholigi, Arsava mamlakati, Kipr oroli, hamda Misr tomonidan bo'ysundirilgan Falastin, Suriya, Finikiya shahar-davlatlari hukmdorlaridan yetib kelgan. Ushbu tarixiy hujjatlar bu davrda Misr Yaqin Sharqning eng qudratli davlatlaridan biri bo'lganligi tasdiqlaydi. Amenxotep III (mil. avv. 1455–1424) davrida faqatgina Mitanni va kassitlar Bobiligina Misr bilan raqobatlasha olgan. Amenxotep IV (mil. avv. 1424–1400) hukmronligi davrida esa Kichik Osiyoda Xett podsholigi anchagina kuchaygan va yirik davlatlar uchun jiddiy raqobatchiga aylangan. Suriya, Finikiya, Falastin hududlari Misr va Xett o'rtasida raqobat maydoniga aylangan. Bu yerlar Misr tasarrufida bo'lgan davrda "Fir'avn maktublar uyi" nomli maxsus muassasasi tomonidan boshqarilgan. Fir'avnning eng ishonchli maslahatchisi unga rahbarlik qilgan. Al-amarn arxivining asosiy qismini Suriya va Falastin hokimlarining o'zlari bo'ysungan fir'avnlarga yozgan xatlari tashkil etadi. Suriya va Falastin, bir tomondan, Qadimgi Sharq dunyosining ikki yirik davlati hisoblangan Xet davlati, ikkinchi tomondan, Egipt o'rtasida oraliq davlat vazifasini bajarar edi. Fir'avnga bu hokimliklar o'rtasidagi nizolar uning Suriyadagi ta'sirini mustahkamlashda foyda berar edi. Suriya-falastin hokimlari xatlarining asosiy mundarijasini o'zaro qutlovlar, nikoh tuzilganlik to'g'risidagi muzokaralar, fir'avnlardan harbiy yordam, oltin va sovg'alar jo'natish to'g'risidagi iltimoslar, arz-dodlar, maxfiy

xabarlar va h.k.lar tashkil etadi. Shu bilan bir qatorda xatlarda karvonlarning jo'natilishi to'g'risidagi ma'lumotlar ham uchraydi.

Al-Amarna arxivida saqlangan xatlarning aksariyatini Misrga maxsus elchilar va choparlar yetkazganlar. Elchilar va choparlarni ikki toifaga bo'lish mumkin:

1. Alohida ishonchga ega bo'lgan shaxslar (ular orqali fir'avnlarning mustaqil davlatlar podsholari bilan munosabatlari ta'minlangan).

2. Mansabdor xizmatchilar (ular orqali Falastin, Suriya va Finikiyada joylashgan ko'plab shahar-davlatlarining hokimlari bilan aloqalari amalga oshirilgan).

Fir'avnning har bir elchisi o'zi yuboriladigan mamlakatning urf-odatlarini, madaniyati, yo'llari va geografik xususiyatlarini yaxshi bilishi shart bo'lgan. Undan mohir diplomat bo'lish bilan birga kuchli jangchi bo'lishi ham talab etilgan. Elchilarning aksariyati o'zlari yuboriladigan mamlakatning tilini ham yaxshi bilganlar, aks holda ularga tarjimon hamrohlik qilgan.

Elchilarning shaxsiy daxlsizligi, diplomatik immuniteti huquqiy jihatdan kafolatlanmagan bo'lib, u yoki bu podshoning huzuriga yetib kelgan elchining taqdiri hukmdorning to'la ixtiyorida bo'lgan. Arxivdagi ayrim xatlar mazmunidan ular ko'proq misrlik xattotlarni o'rgatish uchun foydalanganlikni ko'rsatadi. Misrlik xattotlar mixxatli yozuvlarda turli syujetlarni mashq sifatida loy taxtachalarga yozdirishgan. Amenxotep III va Amenxotep IV hukmronligi davri haqida "Qadimgi dunyo tarixi" fanida yetarlicha ma'lumotlar berib o'tilgani bois, faqatgina asosiy e'tiborni uning diplomatik tomoniga qaratishni joz bildik. Bir-biriga teng bo'lgan ikki qudratli davlat boshliqlarining o'zaro, shuningdek Misrga qaram bo'lgan hududlar hukmdorlari bilan fir'avnlarning o'zaro yozishmalarida ma'lum bir qoidalarga amal qilinganligi Tell el-Amarn arxividagi maktublarda saqlanib qolgan. O'zaro do'stona munosabat o'rnatgan va teng darajada bo'lgan hukmdorlar bir-birlarini maktublarda "birodarlar" deb tilga olishadi. Nisbatan ta'siri baland bo'lgan yoki yoshi kattaroq bo'lgan hukmdorlarga murojaat qilishda ko'pincha "ota" tushunchasini qo'llab, o'zlarini o'g'il sifatida keltirishgan. Qaram bo'lgan mahalliy bo'lsa fir'avnga "xo'jayin" deb murojaat qilishgan va o'zlarini bu

maktubda “qul”, “xizmatchi” deb tilga olganlar. Murojaat va tabriklarda aniq bir qoidalarga rioya qilish holatlari mavjud bo`lgan. Masalan, o`zaro do`stona munosabatda bo`lgan va teng pog`onadagi hukmdor shu darajadan kelib chiqib murojaat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xalqaro munosabatlar va diplomatiya tarixi (uslubiy qo`llanma) . Namangan- 2019
2. Xalqaro munosabatlar ta'rixi. Buxoro – 2018.
3. Xalqaro munosabatlar va diplomatiya tarixi (qadimgi davr). Samarqand – 2015.
4. Мамараджабов, Б. (2023). САУДИЯ АРАБИСТОНДАГИ ЎЗБЕК МУҲОЖИРЛАРИ ТАРИХИ: МУВАФФАҚИЯТЛИ АССИМИЛЯЦИЯ ВА ЙЎҚОТИЛГАН МИЛЛИЙ ИДЕНТИКЛИК. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 3(S/6).
5. Мамаражабов, В. N. O. L. (2021). SAUDIYA ARABISTONDAGI OZBEK (TURKISTONLIK) LARGA DOIR TARIXIY JARAYONLAR. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(11), 895-900.